

# Xalqaro Nordik universiteti “Iqtisodiyot va pedagogika” fakultetida talabalar teatr studiyasi tomonidan “Qadam” sahna asari namoyishi

## BAYONNOMASI

Alimuxametov Usmonjon Azimjonovich Xalqaro Nordik Universiteti Tyutor tarbiyachi  
u.alimuxametov@nordicuniversity.org +998950777050

16.12.2024 yil

No\_\_\_\_\_

Toshkent sh.

### Qatnashdilar:

**Sh. I. Mustafakulov** – Xalqaro Nordik universiteti rektori;  
**E. Umarov** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani;  
**Z. Uralbayev** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani muovini;  
**X. Mamajonova** – Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani muovini;  
**Tyutor tarbiyachi pedagoglar jamoasi;**  
**va Xalqaro Nordik universitetining talabalari;**

Xalqaro Nordik universiteti talabalar teatr studiyasi tomonidan “Qadam” sahna asari namoyish etildi. Spektakl talabalarga keljakdagi maqsadlarni belgilash va ilm olishning ahamiyatini ko'rsatish bilan birga, yoshlarni befarqlik va maqsadsizlikdan ogohlantirdi.

Sahna asarida ayrim “bemaqsad” talabalarning turli illatlar va yengil-yelpi hayot tarziga tushib qolishi tasvirlandi. Bu obrazlar orqali talabalarga to‘g‘ri yo‘lni tanlash, ilm olishda jiddiylik va atrofdagi zararli ta’sirlardan saqlanish zarurligi ta’kidlandi. Spektakl yoshlarni maqsadli va ongli bo‘lishga, har bir qadama mas’uliyatni his qilishga chaqirdi.



Namoyish yakunida spektaklni baholash uchun so‘zga chiqqan ustozlar aktyor-talabalarning yutuqlarini va kamchiliklarini qayd etdilar. Ular sahnadagi ijro va yondashuvlarni tahlil qilib, yoshlarni keyingi ishlarida yanada mahoratli va ongli yondashishga undadilar.

“Qadam” sahna asari nafaqat talabalik davrining ahamiyatini, balki har bir insonning hayotidagi har bir qadamning mas’uliyatini ham o‘rgatdi. Bu spektakl talabalarga keljakda o‘z maqsadlarini aniqlab, yaxshi mutaxassis bo‘lish yo‘lida qat’iyat bilan harakat qilishni ta’kidladi.